

"Orolqum" milliy bog'i (MB) rivojlanish imkoniyatlarini muhokama qilishga bag'ishlangan davra suhbat

Hududni muhofaza qilishning eng samarali chorasifatida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va rivojlantirish, eng qimmatli tabiiy ob'yektlarning real saqlanishini ta'minlash va mintaqada biologik xilma-xillikni talab darajasida saqlashga ehtiyoj yildan yilga ortib bormoqda.

2023-yil 5-may kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti tomonidan Sayg'oqni muhofaza qilish alyansi (Saiga Conservation Alliance - SCA), O'zbekiston Respublikasi Tabiiy resurslar vazirligi, Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniy merosni o'rganish va turizmni rivojlantirish instituti, O'zbekiston Respublikasi turizm va "Uz-Kor Gas Chemical" qo'shma korxonasi ko'magida Toshkent shahrining "Moderno" mehmonxonasi zalida Orolqum milliy tabiat bog'i (MTB) ning rivojlanish salohiyatini muhokama qilishga bag'ishlangan davra suhbat tashkil etildi. Ushbu tadbir Darvin tashabbusi/Defra loyihasi "Vozrojdeniye oroli: Orol dengizi atrofida sanoat, tabiatni muhofaza qilish va rivojlantirish" loyihasi doirasida o'tkazilmoqda. Loyiha Oksford universiteti (Buyuk Britaniya) tadqiqotchilari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

Loyiha Orol dengizining qurigan tubida joylashgan Vozrojdeniye oroli va unga tutash hududga muhofaza etiladigan tabiiy hudud maqomini berishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Bu orolning noyob biologik xilma-xilligini, xususan, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan sayg'oqlarni saqlab qolishga yordam beradi. Shu bilan birga, mahalliy aholini, asosan, ekologik turizmni rivojlantirish hisobiga yangi barqaror daromad manbalari bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi.

Seminar doirasida amaldagi ekologiyaga oid qonunchilik asosida va tabiatdan foydalanuvchilarning iqtisodiy manfaatdorligi uchun shart-sharoit yaratish vazifasini inobatga olgan holda Orolqum MTB faoliyatini tashkil etishning bugungi holati muhokama qilindi. Milliy bog' hududini baholashning botanika va zoologik mezonlari muhokama qilindi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning zonalari va chegaralari tasdiqlandi. Ishtirokchilar, shuningdek, "Orolqum" MTB hududi va uning atrofida ekoturizmni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlarni muhokama qildilar.

Ma'ruzalar davra suhbat ishtirokchilarida katta qiziqish uyg'otdi. Mutaxassislar MTB chegaralarini belgilash va zonalashtirishning asosiy yondashuvlarini, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning hududiy tizimlariga integratsiyalashuvning afzalliklari bo'yicha tushuntirishlar berdi.

Tadbirda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni maqbul rivojlantirishning ahamiyati va mohiyati, hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni hal etish imkoniyatlari ham muhokama qilindi.

Ishtirokchilar har bir yangi milliy bog' qo'riqlanadigan tabiiy hududlarning mavjud tarmog'ini to'ldiradi, kelajakda O'zbekiston tabiatining barcha xilma-xilligini ifodalovchi yagona muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini shakllantirish imkonini beradi, degan xulosaga keldi.

